

## ONLINE VA OFFLINE O'QISHNING UMUMIY HAMDA XUSUSIY JIHATLARI

Ismoilova Shamsiyabonu  
(O'zDJTU 2201 guruh talabasi)

**Annotatsiya:** Maqola online va offline ta'larning umumiy hamda xususiy jihatlari haqida aytib o'tiladi. Online ta'larning afzalliklari va kamchiliklari ochib beriladi. Offline ta'limdagi yuz berayotgan muammolar va unga qarshilik qilayotgan omillar haqida so'z boradi.

**Kalit sozlar:** online, offline, vaqt, ta'lim, sifat, arzon, qulay, tenglik, motivatsiya, texnologiya, izolyatsiya.

**Аннотация:** В статье говорится об общих и специфических аспектах онлайн- и офлайн-образования, раскрываются преимущества и недостатки онлайн-образования. Обсуждаются проблемы оффлайн-образования и факторы, противодействующие ему.

**Ключевые слова:** онлайн, офлайн, время, образование, качество, дешево, удобно, равенство, мотивация, технологии, изоляция.

**Annotation:** The article talks about general and specific aspects of online and offline education, reveals the advantages and disadvantages of online education. The problems of offline education and factors counteracting it are discussed.

**Keywords:** online, offline, time, education, quality, cheap, convenient, equality, motivation, technology, isolation.

Online o'qish raqamli formatdagi matndan ma'no chiqarish jarayonidir. Online o'qish raqamli o'qish ham deyiladi. Aksariyat tadqiqotchilar online o'qish tajribasini bosma materiallar o'qish tajribasidan tubdan farq qiladi deb biliшади. Biroq, quyida muhokama qilinganidek, ushbu turli xil tajribalarning tabiatи va sifati hali ham muhokama qilinmoqda va o'rganilmoqda.

Koronavirus pandemiysi davrida butun dunyo online-ta'limni joriy etish muammosi bilan to'qnashdi. Bu pandemiya sabab maktab o'quvchilaridan to universtet talabalarigacha masofaviy ta'lim olishdi. Buni kimdir xursandchilik bilan, kimdir tanqidiy nazar va yana kimlardir juda ko'p xafagarchiliklar bilan qarshi oldi. To'g'ri online ta'larning ba'zi kamchiliklari mavjud ammo uning afzallik tomonlarini ham sanab o'tish mumkin.

### 1.VAQТ BORASIDA QULAYLIK

Onlayn-kurslarni bandligingizga mutanosib tarzda tanlashingiz mumkin. Istalgan joyda, istalgan vaqtida shug'ullana olasiz. Deyarli hamma ta'limiy onlayn-platformalar mobil qurilmalarda ishlaydi. Qulay kiyimda va qulay sharoitda, bir finjon qahva bilan ma'ruza tinglay olasiz. Yo'lga vaqt sarflash kerak emas. Bunday mayda narsalar ortiqcha zo'riqishdan asraydi. Bundan ortgan vaqt va kuchingizni boshqa foydali va qiziqarli narsalarga sarflashingiz mumkin.

## **2.SIFAT BORASIDA OFFLINE TA'LIMDAN QOLISHMAYDI**

Tadqiqotlarga ko'ra, onlayn-ta'lism ko'pgina ko'rsatkichlarga ko'ra an'anaviy ta'lidan sifat borasida qolishmaydi. Amerika universitetlari o'qituvchilarining 77 foizi onlayn- ta'lismni sifat jihatdan an'anaviy ta'lism bilan teng, ba'zida esa undan ustun deb hisoblashadi. Kursning samaradorligi asosan o'quvchiga bog'liq: masofaviy ta'lism ko'proq intizom va shaxsiy nazorat talab qiladi.

Turli qulay vositalar: prezentsiyalar, testlar, videolar, chat, ekran namoyishi va darsni qayta-qayta ko'ra olish imkoniyati ta'limga yuqori samaradorligini ta'minlaydi. Onlayn ta'lism tashkilotchilari ma'ruza yoki mahorat-darslariga turli shaharlar va mamlakatlardan o'qituvchilar va professionallarni taklif qila oladi. Bu esa ta'lism hamda diplom obro'si va sifatini yanada takomillashtiradi.

## **3.QIZIQARLI VA QUVNOQ**

Onlayn-ta'lism vositalari darsni qiziqarli qilishga yordam beradi. Ayniqsa, aniq fanlar uchun qo'llash qulay. Interaktiv mashg'ulotlar, o'yin usuli, yutuqlar va musobaqalar o'quvchilarni ta'lism jarayoniga sho'ng'ishiga olib keladi. Bundan tashqari, onlayn-darslardagi muloqot u qadar rasmiy emas, o'quvchi o'zini qulay his qiladi va kamroq stressha tushadi, bu ayniqsa, testlar va nazorat ishlarida muhim.

## **4.ARZON**

Ota-onalarning hammasi farzandini o'qitishni xohlaydi, biroq har kim ham obro'li maktabga yuborolmaydi yoki xususiy darslar uchun to'lov qilolmaydi. Guruhiy onlayn mashg'ulotlar qimmat repetitor xizmatlari o'rnini bosishi mumkin.

## **5.HAMMA UCHUN MOS VA QULAY**

Onlayn-ta'lism har kimga o'qish imkonini beradi. Ba'zilar kasallik, xizmat safarlari, tug'ruq yoki uyining chekka joydaligi, jismoniy nuqsonlari tufayli muktab, universitet va kurslarga qatnay olmasligi mumkin. Bunday hollarda internet orqali ham yaxshi ta'lism olish, yangi kasbni va zarur ko'nikmalarni egallash mumkin.

Yaxshi ta'limiylar platformalar butun dunyo bo'ylab millionlab o'quvchilarni o'qitish imkonini beradi. Sinfda joy qolmagani haqida umuman gap bo'lmaydi. Bitta guruh shakllangan bo'lsa ham, yangisini topish muammo emas.

## **6.TENGLIK**

Irqi, dini, jinsi, millati, yoshi, kiyinishi, tashqi ko'rinishiga ko'ra talabalar o'rtasida diskriminatsiyaning mavjud emasligi masofaviy ta'limga yana bir afzalliklaridan biridir.

Online ta'linda o'quvchi o'ziga qulay vaqtida va hattoki ishdan ajralmagan holda o'qishi mumkin. Aynan shu afzalliklari tufayli bu uslub dunyoda hozirgi kunda keng tarqalgan. Ko'pgina yirik korxonalar mutaxassislari malakasini oshirish yoki o'zgartirish uchun shu uslubdan foydalanib, yiliga millionlab dollarlarni tejamoqdalar.

Aslini olganda masofaviy ta'limga biz bilmagan anchagina afzalliklari va qulayliklari bor. Shunga yarasha, albatta, kamchiliklari ham talaygina. Rivojlangan ko'pgina davlatlarning oliy ta'lism muassasalarida o'qish onlayn tarzda olib

boriladi. An'anaviy va onlayn o'qishning yutuqlari, kamchiliklari va afzalliklarini solishtirish kerak.

Talaba o'qish bilan bir qatorda daromadli ish bilan ham shug'ullanishi mumkin. O'qitishning bu shaklida talaba dam olish kunlarida, ko'cha-ko'yda yoki yarim tun bo'lischen qat'iy nazar bilim olishi mumkin. Eng asosiysi peshona teri evaziga topilgan mablag'i tejaladi. Vaqt degan oliv hakamning qadriga yetadi. Ijodkorlik namoyon bo'ladi. Erkin ishslash, fikrlash, ijod qilish, o'zining ustida ishslash ko'nikmasi hosil bo'ladi.

Masofadan oqitishning yana bir afzallik tomoni unda o'qish muddatini o'quvchi o'zi belgilaydi, ya'ni talaba ixtiyoriy paytda o'qishni boshlaydi, materiallarni o'qituvchi nazoratida o'zlashtiradi. O'zlashtirish topshiriqlarni, testlarni bajarishiga qarab aniqlanadi. O'quvchi berilgan mavzularni qanchalik tez va sifatli o'zlashtirsa, shunchalik kelajagdagi faoliyatiga samarali xizmat qilishini ta'minlay oladi, shu bilan bir qatorda mavzularni ham o'z vaqtida o'zlashtira olsa, o'qishni davom ettirishga imkoniyat beriladi. Masofaviy talimda har bir o'quvchining bilim samaradorligini kuzatish osonroq. Chunki o'quv dasturlari buning uchun qulay testlar va statistikani taklif qiladi. Elektron ta'lim pulni tejaydi. Masalan, pedagoglar yoki o'quvchilar kundalik yo'l xarajatini sarf qilmasdan uyda ta'lim berish va ta'lim olish imkoniyatini egallashi mumkin. Siz har qanday joyda mashg'ulot o'tkazishingiz mumkin. Yoki kamerani butunlay o'chirib qo'yib ham dars o'taverasiz.

Ta'lim jarayoni sharoitga ko'ra masofaviy bo'lsa, har kim bundan biror hikmatni, yaxshilikni izlashi kerak. Ta'limning har qanday turida ikki tomon ishtirok etadi: muallim va talaba. Maqsad – talabaning biror bir sohada yetuk mutaxassis bo'lib yetishishi, albatta. Yuzma-yuz (oflays) ta'limda insofli, bilimli, talabchan muallim talabalarning diqqat-e'tiborini o'ziga qaratib, ba'zan tanbeh ham berib, saboq jarayonini mahorat bilan boshqarib turadi. Qiziquvchan va ilmiga chanqoq talabalar auditoriyada bemalol o'zlari tushunmay qolgan jumboqlarni, hatto shaxsiy savollarini istagan mahali muallimdan so'rab olishlari mumkin. To'g'risi, masofaviy ta'limda ba'zan imkoniyatlar cheklangan va texnik muammolar bo'lishi ham kuzatildi. Albatta, bular umumiy bir manzara. Aslini olganda, har qanday ta'lim yo'sinida ham bilim olish birinchi navbatda talabaning o'z "men"ini, o'zligini anglashi bilan bog'liq, deb o'ylayman. Agar dars jarayoni yuzma-yuz bo'lsa-yu, talabaning o'zi loqayd, beparvo va nima uchun o'quv yurtiga kelganini anglamasa, auditoriyaga genial olim, boringki, akademik kirib saboq bersa ham, ko'pincha natija chiqmasligi mumkin. O'zini anglagan, o'zi tanlagan soha mashg'ulotlarini zavqli bir holatga aylantira olgan talabalar masofaviy ta'lim jarayonida ham tirishib, izlanib, ba'zan muallimlarga qo'ng'iroq qilib o'ziga kerakli bilimni oladi.

Ammo bizda hozirgi kunda eng samarali deb hisoblanadigan an'anaviy ta'lim shakli bu - "offline" ta'lim hisoblanadi. Bu ta'lim shaklida siz murabbiy va kuratorlar bilan yuzma-yuz muloqot qilish, networking va yangi do'stlar orttirish, yanada ko'proq nazorat, savol berib, bir zumda javob olish imkoniyatiga ega bo'lasiz. Ta'lim

tizimida o'quv jarayonini yangidan isloh qilish, yangi axborot texnologiyalariga asoslangan o'qitish usullarini ishlab chiqish, ularni keng joriy qilish bugunning talabidir. Bunda masofaviy ta'lismiz tizimini joriy qilish maqsadga muvofiqdir. O'tgan asrning 90-yillari boshlarida internetning keng ommalashishi, —butun dunyo ta'lismizda tizimiga yangi "Masofaviy ta'lism" yo'nalishini olib kirdi. Masofaviy ta'lism —bu axborot va kommunikatsiya texnologiyalari internet, elektron pochta, video konferensiya, audio, video ma'lumotlar va multimedia o'quv qo'llanmalariga asoslangan uzoqdan turib o'qitish, o'rgatish usulidir. Masofaviy ta'lismda talabandan doimiy faoliyat interaktiv o'qitish talab etiladi. Bu esa mutaxassisning bilimi va qobiliyatini sifat xususiyatlarini oshiradi. Masofali o'qitishda o'qituvchi va talaba bir-biridan ancha uzoqda joylashgan holda ishlaydi. Lekin ular maxsus usullar yordamida tashkil etilgan o'quv kurslari, nazorat formalari, elektron pochta yordamidagi kommunikatsiya usullari va boshqa internet texnologiyalari yordamida doimiy o'zaro aloqada bo'lishadi. Internet-texnologiyalar asosida masofali ta'lism, bu professional ta'larning zamонавиј universal shakli bolib, u o'rganuvchilarining individual so'rovlariga va ularning mutaxassisliklariga mo'ljallangan. Masofaviy o'qitish barcha xohlovchilarga o'zlarining individual xususiyatlariga muvofiq professional darajalarini oshirish imkoniyatini beradi.

Mamlakatimiz ta'lismiz tizimida sezilarli o'zgarishlar ro'y berayotgan bugungi kunda, turli ta'lism shakllari qatori ayniqsa, masofadan o'qitish keng qo'llanilayotganligi ham quvonchli hol.

Ko'pchilik internetdan faqatgina yangiliklar bilan tanishish, axborot qidirish, elektron pochtadan foydalanish yoki gap sotish uchun foydalanishi hech birimizga sir emas. Internetning imkoniyatlari kundan - kunga oshib bormoqda. Bunga misol qilib: masofadan o'qitish, elektron kutubxonalar, telemeditsina, telemetrologiya, elektron tadbirkorlik, elektron magazinlar va boshqa sohalarni aytishimiz mumkin. Bugungi kunda taraqqiyot juda tez rivojlanmoqda va o'zgarmoqda. Deyarli har daqiqada sayyoramizning turli burchaklarida o'zgarishlar, yangilanishlar va kutilmagan voqealar sodir bo'lmoqda. Har bir kunimiz kuchli yangilik oqimi ostida kechmoqda. Axborot oqimi bizni har joyda, uyda, ishxona va hattoki ta'tilda ham ta'qib etadi. Inson axborot ta'siridan holi normal faoliyat yurita olmaydi. Hayotni anglash, uni o'rganish axborotlarni yig'ish va o'zlashtirish orqali kechadi. Insonning bilimlilik darajasi ham ma'lum davr ichida shaxs tomonidan o'zlashtirilgan axborotlarning ko'p yoki ozligi bilan belgilanadi.

Shuning uchun zamонавиј bilimlar sari keng yo'l ochish ta'lismotni takomillashtirishda yangi axborot texnologiyalardan unumli foydalanish bugungi kunning talabiga aylandi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Vaholanki, ta'lismiz tizimida sezilarli o'zgarishlar ro'y bermoqda. Ta'lismizda masofadan o'qitish uslubi shakllari qo'llanilmoqda. Masofaviy ta'lism uslubi bu sirtqi o'qishning yangi shakli va mustaqil o'qishdir. Bu insonning mustaqil fikrlash, holatni baholash, xulosa va bashorat qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi.

O'qitishning bunday usulida tinglovchi o'quv-metodik materiallarni aniq bir vaqtarda mustaqil tarzda, interaktiv rejimda o'zlashtiradi, test sinovlaridan o'tadi, o'qituvchi rahbarligida nazorat ishlarini bajaradi va "virtual" o'quv guruhidagi boshqa tinglovchilar bilan o'zaro aloqa qiladi. Online ta'lim shaklida siz xohlagan joyingizda masofadan turib o'qish, darslarni o'zingiz uchun qulay vaqtida, hatto, tunda ham o'zlashtirish, ta'lim jarayoni tezligini o'zingiz nazorat qilishingiz, xarajatlar kamayishi ( ya'ni, kursning o'zi, yo'l va tushlik uchun xarajatlar) shuningdek, o'zingizda tartib intizomni shakllantirish kabi imkoniyatlarga ega bo'lasiz. Aksariyat insonlar onlayn-ta'lim hech qachon an'anaviy ( offline ) ta'limning o'rnnini bosa olmaydi deb o'ylashadi. Ammo, men ularning fikriga qo'shilmayman: Chunki men o'ylaymanki onlayn-ta'lim an'anaviy ta'limdan-da samarali bo'la oladi. Onlayn-ta'lim hozirda u qadar rivojlanmaganligi sababli, unga bepisand qarash, mashinalar ishlab chiqarilayotgan vaqtda otlardan foydalanishni afzal ko'rishga teng. An'anaviy ta'limdagи eng katta muammo - bu barcha uchun bir xil bilim berish uslubi ishlatilinishidir. Istalgan sinfda tengdoshlaridan ortda qolgan yoki oldinga o'zib ketgan o'quvchilarni uchratishimiz mumkin. Hatto, eng yaxshi o'qituvchi ham qachonlardir o'zidan " Men, ko'proq o'rganuvchilar mavzuni tushunishi uchun sekinlashishim kerakmi yoki o'quv-rejani tugatish uchun mavzularni tezroq o'tishim kerakmi ? " degan savolni so'ragan. Shuning uchun ular tezlik va ta'lim berishda o'rta holatda saqlashga harakat qiladi. Onlayn ta'lim bu muammoni hal qila oladi. Negaki, u individual ta'lim berishga asoslangan va ta'lim olish jarayoni o'quvchi hamda uning moslashuvchanligiga qarab o'zgaradi.

Onlayn ta'limning ham ba'zi bir kamchiliklari bor. Kamchilik yo'q joyda o'sish, rivojlanish bolmaydi. Masofadan turib yoki odatdagidek sinfxonalarida ta'lim olish - bu ko'plab abituriyentlarni qiyinayotgan savol. Ko'pincha o'quvchilar masofaviy ta'lim olishni tanlashdan qo'rqishadi, chunki ular ushbu ta'lim usulining ijobiy va salbiy tomonlariga aniqlik kiritmaydilar. Agar siz shu tartibda bilim olishni xohlasangiz, masofaviy bilim olishning afzalliklari va kamchiliklarini tushunib olishingiz lozim.

Bular:

1. Monitor yoki telefon ekranlarida diqqatni jamlay olmaslik. Ko'pgina talabalar uchun onlayn ta'limning eng katta muammolaridan biri bu uzoq vaqt davomida ekranga e'tibor berib o'qishni davom ettirish. Shu sababli,

o'qituvchilar o'zlarining onlayn darslarini aniq, qiziqarli va interaktiv tarzda o'tkazib, o'quvchilarning diqqatini darsga qaratishga yordam berishlari shart.

Chalg'ish ehtimoli yuqori. Yuzma-yuz muloqot qilish uchun o'qituvchilar va kutilayotgan topshiriqlar haqida doimiy ravishda eslatuvchi kursdoshlar yo'q. Agar talaba masofaviy o'qitish kursini muvaffaqiyatli yakunlamoqchi bo'lsa, o'zini g'ayratli va diqqatli qilishi kerak;

2. Texnologiya masalalari. Onlayn darslarning yana bir eng muhim muammosi — bu Internetga ulanish.

So'nggi bir necha yil ichida Internetning aholiga kirib borishi o'sib borayotgan bo'lsa-da, kichik shahar va qishloqlarda, hali ham internet bilan muammolar mavjud.

Onlayn bilim olishning eng katta dushmani bu internet provayderlarining sekin ishlashi yoki aloqa uzilib qolishi. Bu vaziyatda talabaning ta'lim olishga bo'lgan intilishi so'nishi yoki asabiyplashishiga olib keladi.

3. Izolyatsiya hissi. Talabalar o'z tengdoshlari davrasida ko'p narsalarni o'rGANISHLARI mumkin.

Biroq, onlayn darsda talabalar va o'qituvchilar o'rtasida minimal jismoniy shovqinlar mavjud. Bu ko'pincha talabalar uchun izolyatsiya tuyg'usini keltirib chiqaradi.

4. O'qituvchilar malakasini oshirish. Ko'pincha o'qituvchilar texnologiyani juda oddiy tushunishadi. Ba'zan, ular hatto onlayn darslarni o'tkazish uchun zarur manbalar va vositalarga ega emaslar.

5. Ekran vaqtini boshqarish. Ko'pgina ota-onalar farzandlarini ekranga qarab shuncha soat sarf qilishlari

sog'liq uchun zararli ekanligidan xavotirda. Ekran vaqtining ko'payishi onlayn ta'limning eng katta tashvishlari va kamchiliklaridan biridir. Ba'zan o'quvchilar ekran oldida o'tirish tufayli yomon holat va boshqa jismoniy muammolarga duch kelishadi.

Siz qay bir yo'sinda ta'lim olishingizdan qatiy nazar, bularning bari siz mukammal bilim olishingizingizga ko'maklashadi.

Online va offline ta'lim orasida qanday farq bor va nega offline ta'lim eskirib bormoqda?

Online va offline bilim olish bir-biri bilan zid narsa emas. Meni fikrimcha o'qishga borib yoki masofaviy tarzda bilim olishning ikkala shakli ham yaxshi. Shaxsan meni o'zim ham ilk bor online kurs olyapman, oldin ijtimoiy tarmoqlar yoki YouTube orqali video darslarni ko'rар edim, lekin hozir tizimli ravishda online kurs olyapman.

Online darslarni qulaylik taraflarini aytadigan bo'lsam xohlagan paytingizda, ishingiz chiqib qolsa ma'lum vaqtidan so'ng davom ettirasiz, imtihonlarni topshirasiz ya'ni online darslarning imkoniyati juda katta va o'zimizni online tarzda bilim olishga o'rgatishimiz kerak.

Online darslarning pullik yoki pulsiz shaklining pullik shaklini tanlashni maslahat berar edim chunki pul to'laganingizda mas'uliyat olasiz va biron narsa kutasiz hamda sizdan pul olgan ikkinchi taraf ham mas'uliyat oladi, ya'ni ertaga siz ularga savol bergenningizda javobi ham batafsil bo'ladi.

Online darslarda yana shunday afzalliklar borki, ularni dars vaqtida yoki keyinchalik ko'p uchratamiz:

### 1. Samaradorlik

Onlayn ta'lim o'qituvchilar uchun o'quvchilarga dars berishning samarali usulini taklif etadi. Onlayn ta'lim — video, PDF, podcast kabi bir qator vositalarga ega, o'qituvchilar ushbu vositalardan dars rejalarining bir qismi sifatida foydalanishlari mumkin.

### 2. Talabalarning davomat darajasi yaxshilandi

Onlayn darslarni uydan yoki qulay joydan o'qish mumkinligi sababli, o'quvchilar dars qoldirish ehtimoli kamroq.

Shu o'rinda an'anaviy ta'lismizining afzallikkalari va kamchiliklarini ham aytish o'tish lozim.

An'anaviy mashg'ulotlar bugungi kunda eng keng tarqalgan. An'anaviy ta'lismizining paradigmasi: - talaba ta'sir ob'ekti, o'qituvchi esa boshqaruv organlari ko'rsatmalarini bajaruvchisi; pedagogik jarayon rolga asoslangan o'zaro ta'sir, uning har bir ishtirokchisiga ma'lum bir yuklanganda amalga oshiriladi funktsional majburiyatlar, undan chiqib ketish buzilish deb hisoblanadi normativ-huquqiy baza xatti-harakatlar; monologik ta'sir ko'rsatish, o'quvchilarning tashabbusi va ijodini bostirish bilan tavsiflangan talabalar faoliyatini boshqarishning bevosita (imperativ) va operativ uslubi ustunlik qiladi; - iqtidorli va erishish qiyin bo'lgan o'rtacha o'quvchining qobiliyatining asosiy yo'nalishi; faqat o'quvchining xulq-atvori va faoliyatining tashqi shart-sharoitligi uning intizomi, mehnatsevarligining asosiy ko'rsatkichiga aylanadi; ichki dunyo pedagogik ta'sirni amalga oshirishda shaxs e'tiborga olinmaydi.

"An'anaviy ta'lismiz" atamasi, birinchi navbatda, 17-asrda shakllangan o'qitishning sinfida tashkil etilishini anglatadi. Ya.A tomonidan shakllantirilgan didaktika tamoyillari Komenskiy tomonidan yaratilgan va hali ham dunyo maktablarida keng tarqalgan. Zamonaviy an'anaviy ta'lismiz, an'anaviy ta'lismizning afzallikkalari va kamchiliklar , an'anaviy o'qitishning shubhasiz afzalligi - qisqa vaqt ichida katta hajmdagi ma'lumotlarni yetkazish qobiliyatidir. Bunday oqitish bilan o'quvchilar bilimlarni uning haqiqatini isbotlash usullarini olib bermasdan, tayyor shaklda egallaydilar. Bundan tashqari, u bilimlarni o'zlashtirish va qayta ishlab chiqarishni va ularni o'xhash vaziyatlarda qo'llashni o'z ichiga oladi. An'anaviy ta'limalda: Talabalar tayyor bilimlarni oshkor qilmasdan uning haqiqatini isbotlash orqali egallaydilar. Bilimlarni o'zlashtirish va takror ishlab chiqarish va ularni o'xhash vaziyatlarda qo'llash nazarda tutiladi .Afzallikkalari: - qisqa vaqt ichida jamlangan shaklda talabalarni fan asoslari bilimlari va faoliyat uslublari namunalari bilan qurollantirish imkonini beradi; bilimlarni o'zlashtirishning mustahkamligini va amaliy ko'nikma va malakalarning tez shakllanishini ta'minlaydi; bilim va malakalarni o'zlashtirish jarayonini bevosita boshqarish bilimda bo'shliqlar paydo bo'lishining oldini oladi.

Kamchiliklar: - fikrlashdan ko'ra xotiraga ko'proq e'tibor qaratish ("xotira maktabi"); - ijodkorlikni, mustaqillikni, faollikni rivojlantirishga ko'p hissa qo'shmaydi; axborotni idrok etishning individual xususiyatlari yetarlicha hisobga olinmagan; o'qituvchi va talabalar o'rtasidagi munosabatlarning subyektiv-ob'ektiv uslubi ustunlik qiladi Ushbu turdag'i ta'lismizning muhim kamchiliklari orasida fikrlashdan ko'ra xotiraga ko'proq e'tibor qaratishdir. Ushbu trening ham rivojlanishga ozgina hissa qo'shadi. Eng tipik vazifalar quyidagilardir: qo'shish, ajratib ko'rsatish, tagiga chizish, eslab qolish, takrorlash, misol orqali hal qilish va hk. O'quv va kognitiv jarayon asosan reproduktiv (ko'payish) xarakterga ega bo'lib, buning natijasida o'quvchilarda

reproduktiv uslub shakllanadi. Shuning uchun uni ko'pincha "xotira maktabi" deb atashadi. Amaliyat shuni ko'rsatadiki, uzatilayotgan ma'lumotlarning miqdori uni o'zlashtirish imkoniyatlaridan (o'quv jarayonining mazmuni va protsessual tarkibiy qismlari o'rtasidagi ziddiyatdan) oshadi. Bundan tashqari, o'rganish tezligini o'quvchilarning turli individual psixologik xususiyatlariga moslashtirish imkoniyati yo'q (frontal ta'lim va o'rganish o'rtasidagi ziddiyat). individual xarakter bilimlarni assimilyatsiya qilish). Ushbu turdagи ta'limda o'rganish uchun motivatsiyani shakllantirish va rivojlantirishning ba'zi xususiyatlarini qayd etishadi.

Xulosa qilib aytganda ikkala ta'limda ma;lum bir afzallik va kamchliklar bor. Bilimni qanday o'zlashtirish avvalambor o'quvchining o'ziga bog'liq. Negaki bilimga chanqoq, o'z motivatsiyasiga o'quvchi hech qachon to'xtab qolmaydi, doim intilishda bo'ladi va ko'zlanga maraga doimo yeta oladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Oliygoh.uz
2. <https://apriori-nauka.ru/uz/education/dostoinstva-i-nedostatki-tradicionnoi-sistemy-obucheniya.html>
3. BuxDu.uz
4. SamDu.uz